

T/r	Loyiha mavzusi	Fan yoʻnalishi Filologiya va ijtimoiy fanlar
3	Baxshichilik sanʼatiga ixtisoslashtirilgan maktablar uchun mutaxassislik fanlaridan yangi avlod darsliklarini yaratish va planshetlar uchun multimediya dasturlarini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: - respublika baxshichilik sanʼatiga ixtisoslashtirilgan maktab internati va viloyatlar kesimida bolalar musiqa va sanʼat maktablarining baxshichilik va doston ijrochiligiga oid oʻquv qoʻllanmalar va ularning taʼlim standartlariga mosligi, oʻquv uslubiy taʼminoti, meʼyoriy hujjatlari tahlil qilinadi va oʻrganiladi; - viloyatlar kesimida baxshi va jirovlarni ijodiy faoliyati tahlil qilinib, tizimlashtiriladi hamda mavjud baxshichilik maktablari shajarasi ishlab chiqiladi; - toʻplangan maʼlumotlar asosida baxshichilik va doston ijrochiligi taʼlim yoʻnalishlari uchun oʻquv adabiyotlari nashrga tayyorlanadi; - viloyatlar kesimida master-klass, seminar-treninglar tashkillashtiriladi; - yaratilgan yangi oʻquv adabiyotlar dars jarayonlarida tajriba sinovlaridan oʻtkaziladi; - baxshi va doston ijrochiligiga ixtisoslashgan taʼlim muassasalarida oʻqitishning zamonaviy innovatsion dasturi va elektron platformasi yaratiladi. Natijalarni sinovdan oʻtkazish. Olingan natijalar Madaniyat vazirligining hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan oʻtkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi toʻgʻrisida Madaniyat vazirligining xulosasi olinadi.. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, oʻquv qoʻllanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus maʼlumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qoʻllab-quvvatlash xati mavjud boʻlganida qabul qilinadi.